

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRINI BAYON ETISHI VA IJODKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

*Nabijonov Ravshanbek Obidjon o'g'li*

*Navoiy davlat universiteti "Musiqqa ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi*

*Nabijonov Nodirbek Obidjon o'g'li*

*Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi*

*Narpay tuman 1-son ixtisoslashtirilgan maktab*

*musiqqa madaniyati fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikma va malakalarini shakllantirish, shuningdek, ularning mustaqil fikrini bayon etish masalalari, o'quvchilarning umumiy ta'lim jarayonida qiyin vazifalarni bajarishda muvaffaqiyatli bo'lishi, ko'nikmalarni rivojlantirishi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik mahorat, mustaqil fikrlash, musiqqa tinglash, kuylash, musiqqa savodi, musiqqa, musiqqa madaniyati, ijodkorlik malaksi, ko'nikma musiqqa.

### TECHNOLOGY FOR STUDENTS' INDEPENDENT OPINION EXPRESSION AND CREATIVE SKILLS FORMATION IN MUSIC CULTURE LESSONS

*Nabijonov Ravshanbek Obidjon o'g'li*

*Teacher of the "Music Education" department of Navoi State University*

*Nabijonov Nodirbek Obidjon o'g'li*

*is a teacher of music and culture at Narpay District*

*No. 1 Specialized School under the Presidential Educational Institutions Agency.*

**Abstract:** This article talks about the formation of creative skills and competencies of students in music culture lessons, as well as the issues of expressing their independent opinion, students' success in performing difficult tasks in the general education process, and the development of skills. .

**Keywords:** pedagogical skills, independent thinking, listening to music, singing, music literacy, music, music culture, creativity skills, skillful music,

Umumiy ta'lim maktablarida musiqaning asosiy maqsadi, avvalo, o'quvchilarga musiqani tushunish va undan bahramand bo'lish qobiliyatini rivojlantirishdir. Maktabda musiqani chuqur o'rganish yoki professional musiqachilik faoliyatiga tayyorlash ko'pincha asosiy vazifa bo'lmaydi. Biroq, musiqiy ta'limning ahamiyati shundaki, u o'quvchilarga nafaqat musiqqa san'ati bilan

bog'liq bilimlar beradi, balki ular musiqa orqali estetik didni, hissiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishadi.

Musiqani idrok etish, unga ta'sirlanish, musiqaviy asarlarni tahlil qilish va ulardan zavqlanish — bu nafaqat professional musiqachilarga, balki keng ko'lamdagi madaniyatli insonlarga xos bo'lishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, umuman san'at va estetikaga bo'lgan ilgari surilgan yondashuvni, shuningdek, jamiyatdagi musiqaviy va madaniy qadriyatlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi. Shuning uchun musiqiy ta'lim har bir o'quvchiga, uning kelajakdagi faoliyati va qarashlaridan qat'i nazar, zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi. Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish istiqloq davri o'zbek pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shunga monand tarzda ta'lim oluvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ta'limda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni bugungi kunda muhim pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Musiqiy bilim olishning samarali bo'lishi uchun o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'rganish, balki ular shu bilimlardan mustaqil ravishda foydalanish, yangi musiqiy yechimlar topish va o'z fikrlarini shakllantirish zarur. Bunday fikrlashni rivojlantirishda, ayniqsa, ilmiy axborotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish qobiliyati muhim. Musiqa fanida bu jarayon bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi: musiqiy asarlarni tahlil qilish, musiqiy terminologiyani o'rganish, musiqiy strukturani tushunish va shu asosda ijodiy qarorlar qabul qilish. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish uchun ularga turli xil musiqiy asarlar, janrlar va ijodiy uslublar bilan tanishish, ularning asosiy xususiyatlari va o'ziga xosliklarini aniqlash imkoniyatini yaratish muhim. Bu orqali o'quvchilar musiqa san'atining ko'p qirrali tabiati haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladi va o'z ijodiy salohiyatlarini ochish uchun zarur bo'lgan metodlarni o'rganishadi.

Aynan ijodiy fikrlash malakasini shakllantirishda, o'quvchilarning bilimini anglash, tahlil qilish va yangi fikrlar yaratish jarayonlarini birgalikda rivojlantirish juda samarali bo'ladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki o'zlarini musiqiy janrlar va shakllarda ifoda etishga ham o'rgatish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchilarning roli juda katta, chunki ular o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga, yangi yondashuvlarni sinab ko'rishga va hatto xatolaridan o'rganishga undashlari lozim. Mazkur nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki, undan barcha turdagi musiqiy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Musiqiy ta'limning taniqli metodislari fikricha, avval o'quvchilarning xarakteridan kelib chiqqan holda ularning ovozigacha tushadiga ashula tanlash, keyin muayyan musiqiy asarni ajratib olish, ajratib olingan asarni namunali ijrosi namoyish etilishi tavsiya qilinadi. Biroq olimlar o'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan qiyoslanib o'quvchiga zarur maslahatlar berilishi lozimligini e'tbordand chetda qoldirilgan. Bizningcha, tanlangan repertuardagi musiqiy asar o'quvchi tomonidan ijro etilganda asarning har bo'limi namunaviy ijro bilan bosqichma-bosqich qiyoslanib borishi lozim. Shundagina o'quvchi o'zining kamchiliklarini tez ilg'ab oladi. Mutaxassislar fikricha, musiqa savodi darslarida o'quvchilarning tasavvur va tafakkur qilishlari uchun o'qitishning ikki asosiy yo'nalishi mavjud. Ular: besh chiziqli notada ko'p ishlatiladigan shartli musiqa belgilarini puxta o'zlashtirish, melodiya (tarona), ritm, interval, akkordlar, milliy musiqaning asosiy shakli, dirijyorlik malakasini shakllantirish. Mutaxassis tomonidan alohida ko'rsatilayotgan belgilar musiqiy ta'lim uchun umumiy xarakterga ega. Bundan tashqari mutaxassis ta'kidlagan "Tasavvur va tafakkur, xayol" ning shakllanishi mustaqil ijodiy fikr yuritishning shakllanishi degan gap. To'g'ri tadqiqotchi tomonidan qayd etilgan milliy musiqaning o'ziga xos tomonlarini tushuntirish va musiqa tinglashda asarni to'liq eshittirishdan tashqari uni qismlarga bo'lib takrolash musiqa savodi, qo'shiq kuylash hamda musiqa tinglashni uzviy bog'liqligini ta'minlash o'quvchilarda

ijodiy musiqiy tafakkur yurita olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bu jarayonda ham turlicha, aniq metodik yondashuvlar va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etiladi. Musiqa darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning eng qulay usullaridan biri musiqa mashg'ulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo'lib, u quydagicha amalgam oshiriladi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi musiqa darslarini o'quvchi tarbiyasiga ta'sirini hisobga olgan holda shartli ravishda guruhlarga ajratishi zarur. Musiqa darslarini guruhlalashtiruvda o'quvchilarning musiqa faniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondoshilsa darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodxonligi hamda ijro va taqqoslashdan iborat bo'ladi. Ayniqsa, darsning uchinchi - ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchi yoki o'quvchining o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlari tekshiriladi. Ijro o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan taqqoslanib ta'kidma- ta'kid uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmogi zarur. Musiqa ta'limiga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ustida mustaqil ishlashga, o'rganayotgan masala yuzasidan mustaqil fikrlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondashishga undaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'lim doirasidagi bilimlarni hamma o'quvchi bir xilda o'zlashtira olmaydi. Chunki ularning musiqiy asarni anglash, uni qabul qila olishi musiqiy janrlarga munosabati turlicha. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda yuqoridagi ijro va qiyoslash metodidan foydalanishdan oldin ta'lim oluvchilarni ham muayyan guruhlarga ajratish, ya'ni tabaqalashtirish lozim. O'quvchilar bilan yakka holda mashg'ulotlar olib borishda yuqorida tavsiya etilgan ijro va qiyoslash metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday mashg'ulotlarda yakka holda ishtirok etuvchi o'quvchini uning maxoratidan, o'zlashtirishning darajasidan qat'iy nazar o'qituvchi o'ziga ruhan ergashtirish, o'zining professional namunali ijrosi bilan avvalo, uni qoyil qoldirishi ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hozirgi kun o'quv talabi o'quvchilarga ta'lim berishda: "Men o'rgataman, sen o'rgan" qabilidagi eski usullardan voz kechishni taqazo etmoqda. Endi o'quvchi dars jarayonida shunchaki tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanish lozim. Ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi madhiyasi" ni tinglash va kuylash umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflari dasturiga kiritilgan. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilaridan Davlat madhiyasini mukammal va bekamiko'st kuylab bera olishlari talab etiladi. Mavzuni puhta o'zlashtirish maqsadida, biz dastlab, VII sinf o'quvchilari bilan shu borada suhbat o'tkazdik. Suhbat asosida quyidagi savollar o'quvchilar e'tiboriga havola etildi. Savolar: Davlat madhiyasi boshqa asarlardan nimasi bilan farq qiladi? Uni qay darajada ijro etishadi? Madhiyamiz kuylanganda biz qanday tuyg'ularni his etamiz? O'quvchilar savolarga javob berishda imkon boricha o'z bilim va tushunchalarini to'la ifodalashga harakat qiladilar. Bu jarayonda barcha o'quvchilar qatnashishlari lozim. Aks holda, 2-3 o'quvchigina faollik ko'rsatib, qolganlari o'zini kamsitilgandek his qilishi mumkin. Ushbu suhbatda o'quvchi bevosita ishtirok etmasada, u suhbat maromini boshqarib boruvchi mas'ul hisoblanadi. O'quvchilar berilayotgan axborotlarni o'qituvchidan emas, balki o'z sinfdoshlaridan oladilar, bu esa, ularni yanada faollik ko'rsatishga undaydi. Javoblar: Davlat madhiyasi bu oddiy qo'shiq emas, balki u davlatimizning belgisidir. Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikamizning ramzlari berilgan, bular: bayroq, gerb, madhiya va pul birligi (valyuta) dir. Ularning har biri davlatimizning mustaqilligini belgilab beruvchi ramizlardir. Madhiyamiz - Respublikamizning musiqiy ifodasi. Har bir davlatning o'z madhiyasi bor. Davlat rahbarlarining uchrashuvlarida o'sha mamlakatlarning madhiyalari ijro etiladi. Turli majlislar, musobaqalar, bayramlar, ko'rik-konkurular ham madhiyamiz bilan ochiladi. Madhiyamizda O'zbekistonimizning nomi ulug'lanadi. Yurtimizning tabiati, xalqi, millatlararo totuvlik ona Vatanimizga bo'lgan sadoqatimiz, mehrimiz haqida kuylanadi. Ona Vatanimizni jondan sevishimiz belgisi sifatida, uning hurmatini ulig'lashimizni namayon etishimiz madhiyamizni o'rnimizdan turib, o'ng qo'limizni chap ko'ksimizga qo'yib kuylaymiz. Shu asnoda, qalbimizda ulug'vor, mustaqil davlatimiz borligidan faxr tuyg'usi paydo bo'ladi.

Madhiyani kuylash jarayonida dinamik tuslardan foydalanish uni yanada ifodali qilib kuylashga imkon beradi. Dastlab dinamik belgilar doskaga yozib chiqiladi yoki ko'rgazmali qurol vositasida ko'rsatilib, ularning har biri qanday tusni ifodalashi haqida fakir almashinadi. Shundan so'ng, bu belgilardan amaliyotda foydalanish ustida ish olib boriladi. O'quvchilar bu belgilarni nimani ifodalashi xususida batafsil, qiynalmasdan so'zlab bera oladilar. Chunki, oldingi darslarda bular haqida o'quvchilarga atroflicha tushuncha berib o'tilgan. Madhiyaning har bir qatori kuylanganda uni qaysi dinamik tusda ijro etish lozimligi borasida fikr yuritiladi. O'quvchilar uni o'zlari mustaqil ravishda belgilab oladilar, o'qituvchi esa, javoblarning qay darajada to'g'ri ekanligiga baxo berib boradi va shu qatorni qayta kuylaganda belgilangan dinamik tusga xos jarangdorlikka ularning etiborini qaratadi. O'quvchilar shu tariqa ma'lum bilimlarni aqliy idrok eta boshlaydilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musika madaniyati" darslariga kiritilgan kuylash uchun mo'ljallangan asarlarning aksariyat ko'pchiligi kuplet shaklida yozilgan bo'lib, ularni kuylayotganda o'quvchilarning ijodkorlik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muloxazalarimizdan kelib chiqqan holda, quyidagi tavsiyalarga diqqatni qaratish o'rindir.

1. O'quvchilarda qo'shiq o'rganish jarayonida, mustaqillik xususiyatlarini shakllantirish uchun asarning she'riy matnini suxbat yo'li bilan tahlil qilish lozim va bunda o'quvchilarning faol ishtirok etishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

2. Asarga hos dinamik tuslarni tanlash vazifasini ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari asosida amalga oshiriladi.

3. O'quvchilarning ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish uchun boshlovchi kuplet va naqorotni mukammal o'rgatish, qolgan kupletlarni esa, o'quvchilarni o'zlari topib kuylashlariga imkon berish joizdir. Maskur usullarda kuylash uchun mo'ljallangan barcha asarlarni o'rganish jarayonida imkon qadar foydalanish mumkin. Musika asarining mazmunini tushunish tinglovchining umumiy madaniyatiga, shuningdek, uning maxsus tayyorgarlikka egaligiga bog'liq bo'lib, maxsus tayyorgarlik o'z navbatida tinglovchi etiborining faollik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi malumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lgan tinglovchlarning idroki boyroq bo'ladi. Musiqani tushinadigan o'quvchining musuqa asarlariga qiziqish doirasi urfning ta'siriga kamroq beriladi, ba'diidiy didning yuksak darajasi bilan ajralib turadi. Musika shaklining o'ziga hos tomonini, mazmunini, musiqani rivojlanish tarixini tushunish asosida, tinglovchi sifatida katta tajribaga ega bo'lish, musiqaviy - ijodiy faoliyat sohasida rivojlangan ko'nikma va malakalarga, ega bo'lish asosidagina musika asarini to'laqonli idrok qilish mumkin.

Musika madaniyati darslari, faqat musika san'ati va nazariyasiga oid bilimlarni o'rganish bilan cheklanmay, o'quvchilarni ijodiy fikrlash, o'z g'oyalarini bayon etish va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish jarayoniga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

### **1. Ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish:**

Musika madaniyati darslarida o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning birinchi bosqichi — bu ularni musiqaning asosiy prinsiplari va uslublarini tushunishga o'rgatishdir. Bu jarayonda o'quvchilar musiqiy asarlar, janrlar va shakllar bilan tanishadilar. Ammo ijodkorlik faqat shablonlarga amal qilishdan iborat emas. Asosiy maqsad — o'quvchilarni o'z fikrini va his-tuyg'ularini musiqiy asar orqali ifodalashga undash, musiqiy tahlilni mustaqil amalga oshirishga o'rgatishdir.

Ijodkorlikni rivojlantirishda:

- **Eksperiment va xatolarni qadrlash:** O'quvchilarni yangi musiqiy usullarni sinab ko'rishga, yangi g'oyalar yaratishga va xatolaridan o'rganishga rag'batlantirish.
- **Musiqiy ifoda erkinligi:** O'quvchilarni musiqiy til va vositalardan o'z xohishiga qarab foydalanishga undash.
- **Yangi musiqiy shakllarni yaratish:** O'quvchilarga turli xil musiqiy shakllarda yaratish vazifalarini berish, masalan, yangi qo'shiq yaratish yoki o'zgacha kompozitsion shakllar qurish.

### 2. Mustaqil fikrlash va bayon etish

Musiqqa madaniyati darslarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarga o'z musiqiy ta'limini faqatgina tinglovchilik va kuzatuvchilik darajasida qoldirmaslikka yordam beradi. Ular o'z qarashlarini aniqlab, musiqiy asarlarni tahlil qilish, o'z fikrlarini asoslash va boshqalar bilan muhokama qilishga o'rgatiladi. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchilarni faqat tinglash emas, balki musiqiy asarlarni baholash, ularga nisbatan o'z fikrlarini ifodalash va o'z qarashlarini yaratishga jalb qilish zarur.

Mustaqil fikrni bayon etishning ba'zi asosiy yo'llari:

- **Musiqiy tahlil qilish:** O'quvchilarga musiqiy asarlarni tahlil qilishni o'rgatish, bu esa ularning fikrlash qobiliyatini oshiradi va musiqiy nutqini shakllantiradi.
- **Diskussiyalar va muhokamalar:** O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkonini berish, guruh muhokamalari orqali fikr almashish va turli qarashlarga hurmat bilan yondashishni o'rgatish.
- **Yaratilish jarayonini tushunish:** Musiqqa asarining yaratilish jarayonini tushuntirish va o'quvchilarni bu jarayonga qiziqtirish, ular o'z ijodiy jarayonlarini rivojlantirishga qiziqish ko'rsatadilar.

### 3. Musiqiy bilim va estetik didning rivojlanishi

O'quvchilar musiqqa san'atini tushunish va ularga nisbatan estetik qarashlarni shakllantirish uchun, ularga nafaqat musiqqa asarlarini tinglashni, balki ularga nisbatan o'z fikrlarini rivojlantirishni o'rgatish kerak. Bu esa ularning umumiy estetik rivojlanishiga yordam beradi va musiqiy fikrlashni yanada chuqurlashtiradi.

Musiqaviy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak. Yosh avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Turli metodik manbalarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashga va yo'l - yo'lakay bo'lsa-da, turlicha qarashlar mavjud. Masalan, ba'zi bir mutaxassislarining fikricha ijodkorlikni shakllantirish uchun bolalarning bilimni anglab o'tish imkoniyatlarini rejalashtirib turliy ilmiy axborotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Ushbu nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Musiqqa ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'stira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Musiqqa darslarida o'quvchilarni ijodiy izlanishga o'rgatishning eng qulay usullaridan biri musiqqa mashg'ulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo'lib, u quydagicha amalga oshiriladi. Buning uchun musiqqa o'qituvchisi musiqqa darslarini o'quvchi

tarbiyasiga ta'sirini hisobga olgan holda shartli ravishda guruhlarga ajratish zarur. Musiqa darslarini guruhlashtiruvda o'quvchining musiqa faniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondoshilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodhonligi hamda ijro va taqqoslashdan iborat bo'ladi. Ayniqsa darsning ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchining o'tilga mavzu yuzasidan bilimlari tekshiriladi. Asar ijrosi o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan taqqoslanib -ta'kidma takid uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmog'i zarur. Musiqa ta'limiga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ustida mustaqil ishlashga, o'rganayotgan asar yuzasidan mustaqil fikrlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondoshishga undaydi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun juda muhimdir. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'llab - quvvatlashga bo'g'liqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarni aniq tahlil etish. O'quvchining o'ziga xos ijodkorligini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bo'g'liq bo'ladi. Musiqiy qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan musiqiy tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi. O'quvchi yoshlarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlantirish mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning musiqa san'atiga bo'lgan munosabatlarini yanada o'stirish, turli san'at tadbirlarida ishtirok ettirish, olimpiadalar, san'at bayramlari, tanlovlar uchrashuvlarga jalb etish lozim.

Musiqa ijodkorligi faoliyati musiqa o'qituvchisi ijrosiga doira chertib jo'rovoqlik qilish, sinf ijrosiga "Driyorlik" qilish, tavsiya etilgan kuy ohangiga mos harakatlar topish, berilgan she'r parchasiga kuy "baxtalash" kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Musiqa o'qituvchisi biror musiqani ijro etganda unga doira bilan sherik bo'lish, avvalo, biror ijro etilgan kuyga chapak bilan jo'r bo'lishni o'rganishda boshlanadi. Chapak jo'r bo'lgan bola keyinchalik qoshiq, safoil kabi urma asoblarda jo'rovoqlikni o'rgangach, doira bilan sekin - asta jo'rovoqlikni yaxshi o'rganib, asar ijrosiga qo'shilishga harakat qiladi. Qo'shiq ijro etilayotgan vaqtda o'qituvchi qo'l harakati bilan odatda asarni taktilash ya'ni qo'lini pastga tomon harakatlantirib kuchli hissani yuqori tomon ega kuchsiz hissani ko'rsatib qo'shiq kuylatadi. Bolalar esa ana shu harakatga monand ravishda boshqa asarlarga "dirijyorlik" qilib, o'z iste'dodlarini ko'rsatishi mumkin. Bolaning bu harakatlarini kuzatib turgan o'qituvchi dirijyorning mehnatini, buning uchun ko'p o'qishi va yaxshi musiqiy bilimga ega bo'lishi lozimligini o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak. O'qituvchi jozibali kuylay oladigan iste'dodli bolalarga biror-bir kichikroq she'ni qo'shiq qilib yoki hirgoyi qilib berishni so'rashi mumkin. Ba'zi qobiliyatli bolalar bu she'r parchasiga yangi kuy "bastalay" oladilar yoki ilgari o'rgangan biror qo'shiqning musiqasiga moslab bemalol kuylab beradilar. Bunday holat iste'dodli bolalar tomonidan musiqa bilan haraktda ham sodir bo'ladi. Ba'zan sinf konsertida yoki maktabda o'tkazilayotgan bayram tadbirida har qanday iste'dodli o'quvchi ko'pchilik oldida - sahnada o'zini "yo'qotib", sir bosib qo'shiq matnini yoki raqdagi harakat shemasini esdan chiqirib qo'yishi mumkin. Ana shunday holda qo'shiq matnini musiqiy pauza paytida zudlik bilan to'qib yoki raqs harakatini yaratib, vaziyatdan chiqib keta olishi ana shu bolaning ham iqtidori, ham ite'dodi va ham ijodkorligi hisoblanadi. Musiqa o'qituvchisi bolalar tomonidan ijod qilib kelingan kuyga, qo'shiqqa, raqsga, musiqa savodidan tuzilgan masalaga ijobiy munosabatda bo'lishi, ularning ijodini qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirib borishi zarur. Bularning barchasi bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan mehrini yanada oshirishga ko'mak beradi.

# **ILM FAN XABARNOMASI**

## **Ilmiy elektron jurnali**

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific progress, 3 (2), 841-845.
2. Murodova, D. (2022). ЯНГИ ТАРАҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАРДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ. Science and innovation, 1(В6), 702-707.
3. Umumiy o'rta ta'liming davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Musiqa. "Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarining o'qitish masalasi" respublika ilmiy-amaliy anjumani materialari. Toshkent 2009.